

**RAQAMLASHTIRILGAN JINOYAT PROTSESSIDA DAVLAT SUD-EKSPERTIZA
MUASSASALARIGA EKSPERTIZA TAYINLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI****Mansurov Oybek Olim o'gli****X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi huzuridagi Sud
ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti****Tel: +998 99 135 22 37****Elektron pochta: oybekoybek2237@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.21472787>**

Ushbu tezisdagi Jinoyat protsessida raqamli transformatsiya jarayonlari so'nggi yillarda nafaqat tergov va surishtiruv faoliyatini, balki sud-ekspertiza institutini ham tubdan o'zgartirmoqda. Ilmiy adabiyotda bu masala jinoyat ishlarini yuritishning barcha bosqichlarini elektron shaklga o'tkazish, jumladan elektron raqamli jinoyat ishi tushunchasini joriy etish zarurati bilan bog'liq holda tahlil qilinmoqda¹. Shu munosabat bilan jinoyat protsessini raqamlashtirish sharoitida ekspertiza tayinlash institutining o'ziga xos huquqiy va tashkiliy jihatlari alohida ilmiy tadqiqotni talab qiladi, chunki mazkur institut protsessual isbotlash faoliyatining markaziy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, jinoyat protsessini raqamlashtirish sharoitida davlat sud-ekspertiza muassasalariga ekspertiza tayinlashning an'anaviy (qog'oz) tartibidan farq qiluvchi o'ziga xos jihatlari tizimli tahlil qilinadi. Elektron tayinlashning yagona elektron axborot platformasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 8-sentabrda PQ-270-son qaroriga² muvofiq: ekspertiza tayinlovchi organlar bilan sud-ekspertiza tashkilotlari o'rtasida elektron hujjatlar almashinuvini ta'minlashga mo'ljallangan "E-ekspertiza" elektron axborot tizimini joriy etish belgilangani, sun'iy intellektga asoslangan qaror qo'llab-quvvatlash vositasi, Jinoyat protsessining raqamli transformatsiyasi sud-ekspertlik faoliyatining barcha bosqichlariga, jumladan ekspertiza tayinlash institutiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 8-sentyabrda "Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-270-son qaroriga muvofiq, sud-ekspertlik faoliyatini raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish hamda elektron hujjat almashinuvini bosqichma-bosqich to'liq hajmda yo'lga qo'yish davlat siyosati darajasida belgilangan. Xususan, ushbu qarorga ko'ra 2026-yil 1-iyulga qadar foto, audio, video va matn shaklidagi materiallar bo'yicha, 2026-2027-yillarda esa boshqa ekspertiza turlari bo'yicha tadqiqotlarni o'tkazishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish nazarda tutilgan.

Birinchi o'ziga xos jihat-ekspertiza tayinlashning yagona elektron axborot platformasi orqali amalga oshirilishidir. An'anaviy tartibda ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror (ajrim) va tekshiruv obyektlari muassasaga qog'oz shaklda, jismoniy tarzda yetkazilgan bo'lsa, raqamli modelda tayinlovchi organ bilan ekspertiza muassasasi o'rtasidagi hujjat almashinuvi to'liq elektron shaklda kechadi. Bu, birinchidan, tayinlash va qabul qilish o'rtasidagi vaqt oralig'ini qisqartiradi; ikkinchidan, hujjatlarning yo'qolishi yoki buzilishi xavfini kamaytiradi;

¹ Kadirova M. Jinoyat protsessini raqamlashtirishda elektron raqamli jinoyat ishining protsessual ahamiyati // Yevraziyskiy jurnal prava, finansov i prikladnyx nauk. – 2022. – № 2(13). – B. 190–195.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.09.2025 yildagi PQ-270-son <https://lex.uz/docs/-7717938>

uchinchidan, jarayonning har bir bosqichini elektron jurnalda avtomatik qayd etish orqali protsessual nazoratni kuchaytiradi.

Shu bilan birga, elektron platforma orqali tayinlashning huquqiy maqomi xususan, elektron ajrimning qog'oz nusxaga teng protsessual kuchga egaligi, uni qabul qilish vaqti va bu vaqtning protsessual muddatlarni hisoblashdagi ahamiyati amaldagi Jinoyat-protsessual kodeksda alohida tartibga solinmagan. Bu holat amaliyotda muddatlarni hisoblash bo'yicha nizolarga sabab bo'lishi mumkin, shu bois JPKga elektron tayinlash va uni qabul qilish vaqtini belgilovchi maxsus norma kiritish maqsadga muvofiqdir.

Amaliyotda hozirgacha sud tergov organlari tomonidan minglab sud ekspertiza tayinlangan bo'lib aksariyat kelib chiqayotgan muammolardan biri bu ekspertiza tadqiqot obyektlarining yetkazib berish masalasi, bizga ma'lumki sud ekspertiza tekshirish obyektlari bu ashyoviy dalillar, ekspert tekshiruv uchun namunalar, boshqa moddiy obyektlar, murdalar va ularning qismlari, hujjatlar, axborot tizimlarida, elektron jismlarda va Internet jahon axborot tarmog'i manbalarida saqlanayotgan elektron ma'lumotlar, shuningdek ekspertiza o'tkazilayotgan ish materiallari tekshirish obyektlari bo'lishi mumkin. Ekspert tekshiruvlari tirik odamga nisbatan ham o'tkaziladi.

Ekspertizani o'tkazishda tekshirish obyektlari (tirik odamdan tashqari) ekspert tekshiruvini o'tkazish uchun qay darajada zarur bo'lsa, shu darajada shikastlanishi yoki ishlatilishi mumkin. Bunda tekshirish obyektining qisman shikastlanishi yoki ishlatilishiga ekspertizani tayinlagan organning (shaxsning) yozma ruxsati olinishi zarur, tayinlangan ekspertizaning o'ziga xos xususiyatlari obyektning shikastlanishini (buzilishini) yoki ishlatilishini taqozo etuvchi hollar bundan mustasno. Tekshirish obyektlarining ekspertizani tayinlagan organning (shaxsning) yozma ruxsati bilan yoxud tayinlangan ekspertizaning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq holda shikastlanganligi yoki ishlatilganligi davlat sud-ekspertiza muassasasi, boshqa korxona, muassasa, tashkilot yoki ekspert tomonidan mazkur obyektlarning mulkdoriga zararining o'rni qoplab berilishiga sabab bo'lmaydi. Tekshirish obyektlari, agar ularning o'lchamlari va xossalari imkon bersa, o'ralgan va muhrlangan holda ekspertga topshirilishi kerak. Tekshirish obyektini ekspertning ish joyiga yetkazib berishning iloji bo'lmaganda, ekspertizani tayinlagan organ (shaxs) unga mazkur obyektни moneliksiz kirib ko'rishni va uni tekshirish imkoniyatini ta'minlaydi. Tekshirish obyektlari davlat sud-ekspertiza muassasalarida, surishtiruv, dastlabki tergov, prokuratura organlarida va sudlarda ashyoviy dalillarni saqlash qoidalariga rioya qilingan holda saqlanadi. Ekspertiza tugallanganidan keyin tekshirish obyektlari, agar ular to'la ishlatilgan bo'lmasa, ekspertizani tayinlagan organga (shaxsga) qaytariladi³.

Ta'kidlash joizki, "E-ekspertiza" elektron axborot tizimi orqali tayinlangan ekspertizalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Sud ekspertizasini o'tkazishda elektron axborot tizimlari orqali hujjatlar almashinuvini tashkil etish tartibi" to'g'risidagi nizomi bilan tartibga solinadi. Ushbu nizomning yettinchi bandida quyidagicha ta'kidlab o'tiladi, ish materiallari (tadqiqotlarni o'tkazishda asli taqdim etilishi shart bo'ladigan yoki raqamlashtirish imkoni bo'lmagan buyumlar, tadqiqot obyektlari va ish materiallari bundan mustasno) ekspertiza tayinlovchi organning (shaxsning) elektron raqamli imzosi (keyingi o'rinlarda-ERI)

³ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi <https://lex.uz/docs/-111460>

bilan tasdiqlangan qaroriga (ajrimiga) ilova qilingan holda, shu kunning o'zida axborot tizimlari orqali sud-ekspertiza tashkilotlariga yuboriladi.

Bunda elektron shaklda yuborish imkoni bo'lmagan tadqiqot obyektlarini (buyumni) ekspertiza tayinlovchi organ (shaxs) tomonidan darhol sud-ekspertiza tashkilotlariga yuborilishi ta'minlanadi yoki joyiga chiqqan holda ko'zdan kechirilishi lozim bo'lgan tadqiqot obyektlarining turgan (joylashgan) aniq manzili qarorda (ajrimda) ko'rsatiladi⁴.

Amaliyotda kuzatilayotgan dolzarb muammo, ya'ni ekspertiza "E-ekspertiza" platformasi orqali tezkor va elektron tarzda tayinlanishiga qaramay, tadqiqot obyektlari va ish hujjatlarining sud-ekspertiza tashkilotiga hamon an'anaviy (qog'oz, jismoniy) tartibda, kechikish bilan yetib borishidir. Natijada protsessual tayinlash bosqichida erishilgan tezlik amaliy ijro bosqichida yo'qqa chiqadi: ekspert, qaror (ajrim) elektron tarzda kelib tushgan bo'lsa-da, tadqiqot obyektlari qo'lga yetib kelmaguncha tadqiqotni to'liq boshlay olmaydi. Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 20-fevraldagi 74-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomning 7-8 bandlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, qonunchilik darajasida bu muammo qisman allaqachon hal etilgan: ish materiallari (asli taqdim etilishi shart bo'lgan yoki raqamlashtirish imkoni bo'lmagan buyumlar, tadqiqot obyektlari bundan mustasno) ekspertiza tayinlovchi organning ERI bilan tasdiqlangan qaroriga ilova qilingan holda shu kunning o'zida axborot tizimlari orqali yuborilishi hamda sifatli skaner qilingan bo'lishi Nizomda to'g'ridan-to'g'ri majburiy norma sifatida belgilangan. Demak, muammoning ildizi me'yoriy-huquqiy bo'shliqda emas, balki ushbu normaning amaliyotda to'liq ijro etilmasligida ya'ni ijro-nazorat bo'shlig'ida yotibdi. Bundan tashqari, Nizomning 7-bandidagi "asli taqdim etilishi shart bo'ladigan yoki raqamlashtirish imkoni bo'lmagan buyumlar, tadqiqot obyektlari" degan istisno toifasi yopiq (aniq) ro'yxat asosida belgilanmagan. Bu holat amaliyotda har qanday hujjat shaklidagi materialni ham "asli kerak" toifasiga kiritib, uni asossiz ravishda an'anaviy usulda yuborishni davom ettirish uchun subyektiv asos yaratishi mumkin.

Amaliyotda keng tarqalgan yana bir masala, ya'ni "E-ekspertiza" Sud ekspertizasini o'tkazishda elektron axborot tizimlari orqali hujjatlar almashinuvini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomi⁵ (keying o'rinlarda Nizom) ilova qilingan muddatlar sxemasi (masalan, iltimosnomani ijroga qaratish 1 ish kuni, uni o'rganish 2 ish kuni, javob berish 7 ish kuni, ekspert xulosasini tayyorlash 30 kun kabi) bilan "Sud ekspertizasi to'g'risida"⁶gi Qonun va boshqa sud-ekspertlik faoliyatiga doir qonunchilik hujjatlarida belgilangan ekspertiza o'tkazish muddatlari o'rtasidagi nisbat qanday, va amaliyotda ikkalasi farqli bo'lsa, qaysi biriga amal qilish lozimligidir. Nizom matnining o'zi ushbu masalani bevosita hal etadi. Birinchidan, Nizomning 16-bandiga ko'ra, sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan elektron axborot tizimlari orqali tayinlangan ekspertizalar yuzasidan tadqiqotlarning o'zi sud-ekspertlik faoliyatiga doir qonunchilik hujjatlarida ko'rsatilgan talablar va muddatlar asosida o'tkaziladi, ya'ni ekspertizaning mohiyatan bajarilish muddati Nizom emas, balki maxsus qonunchilik bilan tartibga solinadi. Ikkinchidan, sxemaga ilova qilingan izohning 2-bandida to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilishicha, sxemada nazarda tutilmagan holatlarda harakatlar sud-ekspertlik faoliyatiga doir qonunchilik hujjatlarida ko'rsatilgan talablar va muddatlar asosida amalga oshiriladi.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.02.2026 yildagi 74-son <https://lex.uz/docs/-8058586>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.02.2026 yildagi 74-son <https://lex.uz/docs/-8058586>

⁶ O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 01.06.2010 yildagi O'RQ-250-son <https://lex.uz/ru/docs/-1633666>

Shunday qilib, huquqiy-mantiqiy jihatdan bu yerda haqiqiy kolliziya emas, balki ikki xil tartibga solish predmeti mavjud: Nizom sxemasi hujjat aylanishi va tashkiliy-protsedura bosqichlarining (so'rovni ijroga qaratish, o'rganish, javob berish kabi) ish kunlarida hisoblangan muddatlarini, qonunchilik hujjatlari esa ekspertizaning yakuniy, mohiyatan bajarilish muddatini (odatda taqvim kunlarida) belgilaydi. Normativ-huquqiy hujjatlar iyerarxiyasi nuqtayi nazaridan ham bu mantiqiy: Nizom Vazirlar Mahkamasining qarori bo'lib, qonun darajasidagi hujjatga zid kelishi mumkin emas, shu bois u ekspertizaning mohiyatan bajarilish muddatini mustaqil belgilamaydi, faqat unga erishish yo'lidagi protsedura bosqichlarini tartiblaydi. Biroq amaliyotda bu farqlash yetarlicha tushunilmasligi jiddiy muammoga olib kelishi mumkin, xususan sxemaga ilova qilingan izohning 1-bandida belgilangan qoida tufayli: "sxemadagi muddatlar tadqiqot obyektlarining asli kerak bo'lgan hollarda asli kelib tushgan kundan boshlab hisoblanadi." Ushbu norma, oldingi bo'limda tahlil qilingan obyektlarni yetkazishdagi kechikish muammosi bilan bevosita bog'lanib, amaldagi ekspertiza muddatining boshlanish nuqtasini elektron tayinlash sanasidan emas, balki obyektning jismonan yetib kelish sanasidan hisoblash imkonini beradi. Bu holat, nazorat yetarli bo'lmagan taqdirda, tayinlovchi organ yoki ekspertiza tashkiloti tomonidan obyekt yetkazilishini sun'iy ravishda cho'zish orqali protsessual muddatlarni amalda "erkin" uzaytirish uchun stimul yaratishi mumkin. Shu sababli quyidagi takliflar ilgari suriladi: birinchidan, "asli kelib tushgan kun" tushunchasi "E-ekspertiza" platformasida obyektiv va tekshiriladigan tarzda obyekt jismonan qabul qilingan sana-vaqtni mas'ul xodim tomonidan tizimga darhol kiritish orqali qayd etilishi majburiy etib belgilanishi lozim; ikkinchidan, tayinlash kunidan boshlab tadqiqot obyektining jismonan yetkazilishi uchun alohida, aniq muddat (masalan, tuman/shahar darajasida 1 ish kuni, respublika darajasida 3 ish kuni) belgilanishi va bu muddat buzilgan har bir holat bo'yicha javobgarlik mexanizmi joriy etilishi zarur; uchinchidan, Nizom va "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonun o'rtasidagi "protsedura muddati" va "ekspertizaning mohiyatan bajarilish muddati" tushunchalari aniq va bir-biriga mos ta'riflar bilan ikkala hujjatda ham izchil mustahkamlanishi maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Kadirova M. Jinoyat protsessini raqamlashtirishda elektron raqamli jinoyat ishining protsessual ahamiyati // Yevraziyskiy jurnal prava, finansov i prikladnyx nauk. – 2022. – № 2(13). – B. 190–195.
2. O'zbekiston
3. Respublikasi Prezidentining qarori, 08.09.2025 yildagi PQ-270-son <https://lex.uz/docs/-7717938>
4. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi <https://lex.uz/docs/-111460>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.02.2026 yildagi 74-son <https://lex.uz/docs/-8058586>
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 20.02.2026 yildagi 74-son <https://lex.uz/docs/-8058586>
7. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 01.06.2010 yildagi O'RQ-250-son <https://lex.uz/ru/docs/-1633666>